



Axborot xabarnomamizning o'n birinchi soniga xush kelibsiz!

[Yevropa Ittifoqining](#) (YEI) [Xalqaro savdo markazi](#) (XSM) tomonidan amalga oshirilayotgan "[O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashish](#)" loyihasiga bag'ishlangan o'n birinchi axborot xabarnomani e'tiboringizga havola etishdan mamnunmiz. Loyiha O'zbekistonning [Jahon savdo tashkilotiga](#) (JST) a'zo bo'lishini qo'llab-quvvatlab, uning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi orqali mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam berishga qaratilgandir.

2023 yilning aprel-iyun oylari oralig'idagi chorakda O'zbekistonga ko'rsatilgan ko'makaxborot xabarnomaning mazkur soni diqqat markazida turadi. Ushbu chorakning muhim voqealari qatoridan Ostona xalqaro forumida JSTga a'zolik nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlik bo'yicha XSM tomonidan JST bilan hamkorlikda tashkil etilgan sessiya o'rin oldi.

Ostona forumida O'zbekiston delegatsiyasi va uning tarkibida yangi tayinlangan bosh muzokarachi janob Azizbek Urunovning ishtiroki ham tashkil etildi. Tegishli davlat texnik xodimlari uchun sanitariya-fitosanitariya (SFS) va savdodagi texnik to'siqlar (STT) sohalaridagi chora-tadbirlar bo'yicha to'rtta texnik seminar tashkil etilgani yana bir e'tiborli voqea bo'ldi.

Shuningdek, o'tgan chorakda to'qqizta viloyatda xususiy sektor vakillarining JSTga a'zo bo'lish borasida xabardorligini oshirish bo'yicha bir qator seminarlar o'tkazildi.

Mazkur nashr ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud.

Loyihamiz haqidagi batafsil ma'lumot [ingliz](#), [rus](#) va [o'zbek](#) tillaridagi veb-saytlarimizda mavjud.

Barcha savollar bo'yicha quyidagi elektron manzilga murojaat qilishingizni so'raymiz: WTOAccessionUZB@intracen.org

Aloqada bo'ling: #WTOAccessionUZB

O'qishdan zavq olishingizni tilab qolamiz!



JAMOAMIZDAN IZOH:

Kindly note that you have been included in the mailing list of our newsletter following your participation to one of our events. If you wish to unsubscribe, you can do so [here](#).


Обращаем внимание, что вы были включены в список нашей новостной рассылки по итогам участия в одном из наших мероприятий. Если вы хотите отказаться от рассылки, пожалуйста, пройдите по этой [ссылке](#).

Сиз ахборотнома почта рўйхатимизга бизнинг тадбирлар бирида иштирок этганлигиз натижасида киритилганлигини эслатиб ўтамиз. Ушбу бундани бекор қилмоқчи бўлсангиз, келтирилган [хавола](#) орқали уни рад қилишингиз мумкин.

[Batafsil Ma'lumot](#)

LOYIHANI AMALGA OSHIRISH: JARAYON VA ERISHILGAN NATIJALAR

Loyiha belgilangan bir qator maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan:

	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	O'zbekiston hukumati JSTga a'zo bo'lish jarayoni talablariga muvofiq hujjatlarni tayyorlash to'g'risida va muzokaralar olib borish pozitsiyasini ishlab chiqish haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi.
	Savdo siyosatini ishlab chuquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni hamda tashkilotning huquqiy asoslari to'g'risida xabardorligi oshiriladi.
	O'zbekiston JST qoidalarini, xususan JSTning SFS/STT bitimlari va savdo tartiblarini osonlashtirish to'g'risidagi bitimni bajarish bo'yicha tayyorgarlik darajasini oshiradi.
	XSM amalga oshirayotgan ish JSTga a'zo bo'lish jarayoni va a'zolik afzalliklari to'g'risida biznes sohasi, jumladan, ayol ishbilarmonlar uyushmalari o'rtasida xabardorlikni oshirishga yordam beradi.

Loyiha haqida kengroq tasavvurga ega bo'lish uchun o'tgan chorakdagi faoliyat va erishilgan yutuqlar ushbu loyihaning beshta maqsadiga ko'ra ko'rib chiqiladi.

1-MAQSAD

JSTga a'zo bo'lish jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar va muzokaralardagi pozitsiyalarni xabardor bo'lgan holda ishlab chiqish

[Jahon savdo tashkilotiga](#) a'zo bo'lish jarayonida unga qo'shilayotgan mamlakatning amaldagi savdo-iqtisodiy qonunlari va siyosati muhokamaning diqqat markazida turadi va a'zolik shartlari ular asosida kelishiladi. Bu ko'p tomonlama muzokaralar Ishchi guruh (IG)yig'ilishlari zamirida amalga oshirilmoqda. Loyiha O'zbekistonga JSTga a'zo bo'lishning ushbu jarayonida yordam beradi.

Ishchi guruhning 6-yig'ilishi 2023 yilning mart oyida bo'lib o'tgan va u axborotxabarnomaning avvalgi sonida yoritilgan edi. Ushbu yig'ilishdan so'ng JST a'zolari O'zbekistonning savdo rejimi bo'yicha qo'shimcha tushuntirishlar olish maqsadida savollar bilan chiqishdi.

O'tgan chorak davomida loyiha ushbu savollarga tayyorlangan javoblarni ko'rib chiqishga yordam berdi va so'rovlar asosida tavsiyalar berdi. Javoblar ushbu jarayondagi muhim qadam hisoblanadi, chunki ular JSTga a'zo davlatlarning so'rovlariga aniqlik kiritadi va shu bilan JSTga a'zo bo'lish bo'yicha ko'p tomonlama muzokaralarning keyingi bosqichiga yo'l ochadi.

2-MAQSAD

O'zbekistonning milliy savdo siyosatini JSTga a'zo bo'lish talablariga muvofiqlashtirish uchun muayyan sohaviy qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish salohiyatini oshirish

JSTga a'zo bo'lishning yana bir asosiy tarkibiy qismi milliy qonunlarning JSTning tegishli kelishuvlariga muvofiqlikni ta'minlashdir. Shu sababli loyiha O'zbekistonga JSTga a'zo bo'lishning ushbu ustunini qo'llab-quvvatlash uchun uning milliy qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqishga yordam beradi.

O'tgan chorakda O'zbekistonning Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ-SEZ)da faoliyat yuritayotgan firmalar uchun investitsiya va savdoni rag'batlantirish choralari ularning JST talablariga muvofiqligini tahlil qilishda ko'mak ko'rsatildi. Ushbu chorakda loyiha ushbu chora-tadbirlar bo'yicha yakuniy hisobotni o'zbek va rus tillariga tarjima qilishga yordam berdi.

3-MAQSAD

Savdo siyosatini ishlab chiquvchi davlat xizmatchilarining JSTga a'zo bo'lish jarayoni va huquqiy asoslari bo'yicha xabardorligini oshirish

Biron-bir mamlakat JSTga a'zo bo'layotganida uning mansabdor shaxslari zarur ko'nikmalarga ega bo'lishi va JST kelishuvlarining texnik talablarini qanday amalga oshirishni bilishi kerak. Shu sababli loyiha o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish hamda texnik yordam ko'rsatish orqali tegishli davlat organlarining JST qoidalarini va JSTga a'zo bo'lishning texnik jihatlari bo'yicha salohiyatini oshirishga hissa qo'shadi.

O'tgan chorak davomida loyiha tomonidan tashkil etilgan ushbu yo'nalishda bank, kuryerlik xizmatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xizmatlar, telekommunikatsiyalar va boshqa xizmatlarning keng doirasini qamrab olgan kompleks o'quv turkumi doirasida xizmatlar savdosi majburiyatlari ro'yxatini shakllantirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari davom ettirildi.



Ostona xalqaro forumining tadbiridagi panel a'zolari, chapdan o'ngga: O'zbekistonning yangi bosh muzokarachisi janob Azizbek Urunov, elchi Janar Aitjan (Qozog'iston), moderator Mayka Oshikava xonim (JST), Daria Karman (XSM) va janob Rahimberdi Jepbarov (Turkmaniston)

Fotosurat: XSM

Ushbu chorakda qurilish va tegishli muhandislik xizmatlari bo'yicha treninglar tashkil etildi. JSTning qurilish sektori qoidalari tegishli hukumat vakillari bilan muhokama qilindi va arxitektura, loyihalashtirish, integratsiyalashgan loyihalashtirish, shaharlarni rejalashtirish va landshaft arxitekturasi kabi tarmoqlarda O'zbekiston majburiyatlar ro'yxatiga qanday yondashishi mumkinligi ko'rib chiqildi.

O'tgan chorakda bo'lib o'tgan eng muhim tadbirlarning biri JST bilan hamkorlikda va Qozog'iston hukumati ko'magida tashkil etilgan Ostona xalqaro forumida o'tkazilgan tadbir bo'ldi.

“Markaziy Osiyo ko'p tomonlama savdo tizimida: JSTga a'zo bo'lish uchun asoslar” mavzuidagi sessiya mintaqaviy barqarorlikni va ko'p tomonlama aloqalarni kuchaytirish uchun Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikka bag'ishlandi.

Loyiha tarkibiga yangi tayinlangan bosh muzokarachi janob Azizbek Urinov kirgan O'zbekiston delegatsiyasining forumda ishtirok etishiga yordam berdi.

Forum Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida aloqa o'rnatish hamda JSTga a'zo va a'zo bo'lish jarayonida bo'lgan davlatlar o'rtasida tajriba almashish maydoni bo'lib xizmat qildi.

Forumda JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi mamlakatlar e'tiboriga foydali o'rganish vositalari havola etildi. Tadbirda ishtirok etish bo'yicha qo'shimcha yangiliklar ushbu [veb-hikoyada mavjud](#).

Shuningdek, loyihaga 2023-24 o'quv yilida Shveysariyaning Bern shahridagi Jahon savdo institutida (WTI) bir yillik magistratura dasturida ishtirok etish uchun O'zbekiston hukumati xizmatchisini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha so'rov kelib tushdi.

Ushbu tashabbus orqali loyiha tanlab olingan hukumat xizmatchisining xalqaro savdo qoidalari bo'yicha jiddiy treningdan o'tishiga yordam berishni ko'zlamoda va bu xizmatchi o'quv dasturini tugatgandan so'ng O'zbekistonning muzokara guruhiga qo'shiladi va shu bilan loyiha ta'sirining barqarorligini ta'minlaydi. XSM hozirda ushbu dastur ro'yxatidan o'tkazish ustida ish olib bormoqda.

4-MAQSAD

Sanitariya-fitosanitariya (SFS) me'yorlariga, savdodagi texnik to'siqlar (STT) va savdo chora-tadbirlarini soddalashtirish bo'yicha JST majburiyatlariga rioya qilishda milliy institutsional imkoniyatlarni kuchaytirish

O'zbekistonning STT va SFS bilan bog'liq institutlari va salohiyatini mustahkamlashmaqsadida ushbu tor ixtisoslashgan sohalarida JST talablarini qo'llay olish imkoniyati ushbu chorakda bir qator seminarlar orqali jiddiy rivojlanish kuzatildi.

SFS sohasiga bag'ishlangan uchta seminar o'tkazildi. Ikkita besh kunlik seminarda tegishli tarzda fitosanitariya xavfi tahlili va o'simliklarni himoya qilish vositalarini tartibga solish masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, shaffoflik mexanizmlari bo'yicha to'rt kunlik seminar bo'ldi. Unda asosiy e'tibor eng ilg'or xalqaro tajriba asosida SFS bo'yicha Milliy axborot almashish markazi va Milliy xabar berish vakolatli organini tashkil etish va ularning faoliyatini yuritishga qaratildi. Seminarda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligidan o'ttiz sakkiz nafar mutaxassis ishtirok etdi. Seminarlarga oid batafsilyangiliklar ushbu [veb-hikoyada](#) mavjud.



STT sohasida O'zbekiston uchun muhim eksport bozori bo'lgan Yevropa Ittifoqida nooziq-ovqat iste'mol va sanoat mahsulotlari bo'yicha texnik qoidalarning jihatlariga bag'ishlangan uch kunlik seminar bo'lib o'tdi.

Bundan tashqari, STT sohasidagi bilimlarni yanada takomillashtirish maqsadida loyiha O'zbekiston delegatsiyasining JSTning STT bo'yicha qo'mitasining Jenevadagi uch kunlik yig'ilishida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishi uchun ikki bosqichli safarini tashkil qildi. Shveysariyaning Milliy STT axborot almashish markazi (SWITEC), Shveysariyaning Iqtisodiy ishlar bo'yicha davlat kotibiyati (SECO) xuzuridagi STT bo'yicha Milliy xabar berish vakolatli organi bilan ikki tomonlama onlayn uchrashuv tashkil etildi.

Xalqaro standartlarni va ilg'or amaliyotlarni joriy etish borasidagi tushunchalarini yanada chuqurlashtirish maqsadida delegatsiya Jenevada, shuningdek, STT bo'yicha xalqaro standartlashtirish tashkilotlariga, shu jumladan STT sohasidagi xalqaro standartlarni yaratuvchi tashkilotlarga, jumladan, Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (IEC) va Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)ga tashrif buyurdi.

Shundan so'ng delegatsiya Bryusselga yo'l oldi va u yerda Yevropa Ittifoqining Milliy axborot almashish markazi xodimlari bilan uchrashdi. [Veb-hikoyada](#) trening va safar to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan.



STTning jihatlari bo'yicha Toshkentdagi treningda ishtirok etgan texnik mutaxassislar guruhi ekspertlar bilan birga, 2023 yiliyun oyi.

Fotosurat: XSM

5-MAQSAD

Manfaatdor tomonlarning, shu jumladan ayollar uyushmalarining JSTga a'zo bo'lish haqida xabardorligini oshirish

Loyiha o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida xususiy sektor va umuman fuqarolik jamiyatini JSTga a'zo bo'lish va O'zbekistonning jahon bozorlariga integratsiyalashuvidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan ta'sir va potentsial foydalari to'g'risidagi muhokamaga keng jalb etishga harakat qiladi. Qishloq xo'jaligi sohasida xususiy sektor ishtirokchilari uchun xabardorlikni oshirishga qaratilgan bir qator treninglar va tadbirlar yakunlandi. Ular yanvar oyida uchta viloyatda – Xorazm, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida hamda Qoraqalpog'istonda o'tkazilgan seminarlar bilan boshlandi. O'tgan chorakda yana to'qqizta viloyatda seminarlar o'tkazildi: iyun oyida Sirdaryo, Jizzax va Surxondaryoda, iyul oyida esa Farg'ona, Andijon, Namangan, Navoiy, Buxoro va Toshkent viloyatida treninglar bo'lib o'tdi. Bu seminarlarda xususiy sektordan 120 dan ortiq vakillar va 70 nafar davlat xizmatchisi ishtirok etdi.



Xususiy sektor vakillari Buxoroshahrida iyun oyida o'tkazilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarisavdosiga bag'ishlangan seminarida Foto: XSM

[Maqolalarni veb-saytimizda o'qing](#)